



O'ZBEK TILIDA GAP BO'LAKLARINING O'RNI.

**Saparbayeva Gulandom Masharipovna
Shamuratova Bonu Erkinboy qizi**

*Urganch Davlat Universiteti
Xorijiv Filologiya fakulteti
2-bosqich bakalavr talabsi*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada o'zbek tilshunosligi bo'limlaridan biri hisoblangan sintaksis, yani gap bo'laklari haqida fikr yuritiladi va ularning ingliz va o'zbek tilidagi asosiy farqlari o'rganiladi.*

Kalit so'zlar: *Tilshunoslik, sintaksis, morfologiya, gap bo'laklari, lingvistik tahlil, ega, kesim, aniqlovchi, to'ldiruvchi, hol, tahlil metodi.*

Аннотация: *В данной статье рассматривается синтаксис, то есть фрагменты предложений, который считается одним из разделов узбекского языкознания, и рассматриваются их основные отличия между английским и узбекским языками.*

Ключевые слова: *Языкознание, синтаксис, морфология, части речи, лингвистический анализ, притяжательный падеж, причастие, определитель, дополнение, падеж, метод анализа.*

Annotation: *This article discusses the syntax, that is, fragments of sentences, which is considered one of the sections of Uzbek linguistics, and discusses their main differences between the English and Uzbek languages.*

Key words: *Linguistics, syntax, morphology, parts of speech, linguistic analysis, possessive case, participle, determiner, object, case, method of analysis.*

Bilamizki, o'zbek tili uzoq yillik tarixga ega til hisoblanib, uning grammatikasini 11- asrda Mahmud Qoshg'ariy tomonidan ishlab chiqilgan. O'zbek tili grammatikasi shu kunga qadar ko'plab taraqqiyot boshqichlarini bosib o'tdi va hozirgi biz o'rganayotgan ko'rinishga keltirildi. O'zbek tili 16 bo'limdan tashkil topgan bo'lib, ular:

1. Fonetika;
2. Orfografiya;
3. Orfoepiya;
4. Grafika;
5. Leksikologiya;
6. Frazeologiya;
7. So'z yasalishi;
8. Etimologiya;
9. Grammatika;
10. Morfologiya;



11. Morfemika;
12. Sintaksis;
13. Punktuatsiya;
14. Stilistika;
15. Dialektologiya;
16. Leksikografiya¹.

Gap bo'laklari grammatikaning sintaksis bo'limida o'rganiluvchi muhim va katta mavzulardan biridir. Gap bo'laklari bevosita morfologiya bilan bog'liq bo'lib, 6ta so'z turkumlarini o'rganmagunga qadar gap bo'laklarini tushunish murakkablik tug'dirishi mumkin. Shu boisdan yuqorida ko'rsatilgan 16 bo'limlarga e'tibor qaratadigan bo'lsak morfologiya bo'limi sintaksis bo'limidan avval o'rganilishi ko'rsatib o'tilgan. Chunki, biz gaplarni tahlil qilayotgan paytda bu bo'limlarning har ikkisiga ham bir vaqtning o'zida murojaat qilamiz. O'zbek tilida bosh hamda ikkinchi darajali bo'laklari mavjud hisoblanadi: ega, kesim, aniqlovchi, to'ldiruvchi va hol. Gapning asosiy ma'no anglatuvchi qismi deb kesim qaraladi va bazi hollarda faqatgina kesimning o'zidan ham muloqot manbayi sifatida foydalanish mumkin. Shuni qo'shimcha qilish mumkinki, gap bo'laklarining yakka holda qo'llanishi nafaqat kesim doirasida balki, boshqa bo'laklarda ham kuzatilishi mumkin. Bu holat nutqimizda og'zaki hamda yozma holda ishlatiladi. Oddiy kundalik muloqot (so'zlashuv) uslubida ham yoki, yozuvchilar tomonidan asar qahramonlarining nutqi tabiiy, hamda, tasirliroq bo'lishi uchun badiiy uslubda ham foydalanganliklarini kuzatishimiz mumkin bo'ladi. Ammo, gap bo'laklarining tushirib qoldirilishi boshqa uslublarda qo'llanilishi uslubiy xato deb qaraladi va bunday vaziyatlarda o'quvchi uchun tushunmovchilik kelib chiqishi ham mumkin.

Tahlil qilinayotgan mavzuni misollar bilan yoritish maqsadida T.Qudratov va t.Nafasovlarning „Lingvistik tahlil“ qo'llanmasidan ko'chirma keltiramiz: „Gap bo'laklarining tahlilida gapni tarkibiy qismlarga ajrata olish, gap bo'laklarga ajratishning prinsiplarini ajrata olish muhimdir. Shu fakt ayonki, har bir gap bo'lagi ma'lum bir so'roqqa javob bo'ladi².“ Avvalambor, har bir gap bo'lagi o'zining ma'lum so'roq savollariga ega. Biz gap bo'laklarini tahlil qilayotganimizda miyamizda biz savollarni eslaymiz va bu so'z qaysi gap bo'lagi ekanligini osonlik bilan tahlil qila olamiz. Birgina misolni olsak, maktab so'zi so'z turkumi doirasida ot, birlik va qayer? so'rog'iga javob bo'ladi. Endi uni gapda gap bo'lagi sifatida tahlil qilsak qayer? so'rog'iga javob bo'lgan holda ega vazifasini bajaradi. Ikkinchidan, ushbu so'zga kelishik qo'shimchalaridan istalgan birini qo'shish orqali boshqa gap bo'laklarini ham hosil qilish mumkin (maktabni-to'ldiruvchi, maktabga-hol...).

Gap bo'laklari yakka so'z holda yoki ibora va so'z birikmasi bilan ham ifodalanishi ham mumkin. bunday vaziyatda ularni tahlil qilishda ehtiyotkor bo'lish lozim. Bazi hollarda o'quvchilar tomonidan gap tarkibida qatnashgan va bir gap bo'lagi

¹ Orzigul Hamroyeva. „Ona tili. Maruzalar to'plami“. Toshkent „Akademnashr“2016. 12-13-betlar.

² M.T. Irisqulov. „Tilshunoslikka kirish“. Toshkent „Yoshlar matbuoti“2009. 201-bet.



ko`rinishida kelgan ibora yoki so`z birikmalarini ham tahlil qilish holatlari kuzatiladi va bu noto`g`ri hisoblanadi. Gap bo`laklari tahlili sinchkovlik va aniqlikni talab qiladi va har bir so`zga alohida yondashish lozimdir. Gap bo`laklari yakka so`z holida yoki ibora va so`z birikmasi bilan ham ifodalanishi mumkin. gap bo`laklarining bunday ifodalanishi tahlil muallifidan lingvistik bilimlarni talab qiladi. O`zbek tili sintaksisining o`rganish obyekti bo`lgan so`z birikmalari frazalar va iboralar tarkibidagi elementlarni alohida tadqiq qilish uning semantik va sintaktik tahliliga to`g`ri kelmaydi. Ushbu lingvistik birliklar mavjud strukturasi saqlagan holda bir gap bo`lagi sifatida tahlil qilinadi. Masalan: **Onamning bu gapni eshitgach tepa sochi tikka bo`ldi**. Gapidagi *tepa sochi tikka bo`ldi* iborasi achchiqlandi ma`nosida kelgan va ushbu fraza bir gap bo`lagi, ya`ni, kesim sifatida tahlil qilinadi.

Quyida gap bo`laklarining 2ta tahlil metodi bilan tanishtirish fikrimizga oydinlik kiritadi. Birinchi metod bu gap bo`laklari metodi bo`lib, ushbu metod tilshunoslik taraqqiyotining dastlabki davrlaridanoq amalda bo`lgan. Bu metodga ko`ra gaplar bo`laklarga ajratiladi³. Masalan, **Agar, biron asarim kitobxon og`ziga tushsa, mendan oldin u sevinib ketardi. (Said Ahmad)**. Ushbu ergashgan qo`shma gapni sintaktik tahlil qilamiz (qo`shma gaplar ikki soddan tarkib topadi va tarkibida ikki kesimlik belgisiga ega hisoblanadi):

Agar- kirish so`z hisoblanib, sintaktik tahlil qilinmaydi.

Biron- qaysi? so`rog`iga javob bo`ladi va aniqlovchi gap bo`lagi hisoblanadi.

Asarim- nima? so`rog`iga javob bo`lib birinchi sodd gap tarkibidagi ega vazifasini bajaradi.

Kitobxon- ushbu so`z tarkibida –ning qaratqich kelishigi belgisiz qo`llangan va bu so`zga nisbatan –kimning? so`rog`iga javob bo`ladi va qaratqich aniqlovchi vazifasini bajargan.

Og`ziga tushsa- ushbu so`zlar birgalikda turg`un birikmani, ya`ni, ma`lum ma`no anglatuvchi iborani tashkil qiladi va yuqorida takidlanganidek bir gap bo`lagi sifatida tahlil qilinadi. Ushbu fraza birinchi sodd gap tarkibidagi kesim bosh bo`lagi sifatida kelgan.

Mendan- ushbu so`zga nisbatan –kimdan so`rog`i beriladi va to`ldiruvchi bo`lak vazifasida gap tarkibida ishtiro etgan.

Oldin- qachon? so`rog`iga javob bo`ladi va hol vazifasini bajaradi.

U- kim? So`rog`iga javob bo`ladi va ega vazifasida kelgan.

Sevinib ketardi- ko`makchi fe`lli so`z qo`shilmasi murakkab fe`l kesim sifatida tahlil qilinadi.

Kirish so`z, aniqlovchi ega aniqlovchi kesim, to`ldiruvchi hol ega kesim.

Ikkinchisi substitutsiya metodi. Bu uslub ham ko`pdan beri tilshunos olimlar tomonidan ishlatilib kelinadi. Nutqdagi ma`lum bir pozitsiyada turgan til elementlarini boshqasi bilan almashtirib, sodir bo`ladigan funksional o`zgarishni aniqlash substitutsiya uslubining vazifasiga kiradi. Substitutsiya uslubi yordamida sinonim,

³ <https://hozir.org/ozbekiston-respublikasi-oliy-va-orta-maxsus-v10.html?page=116>



antonim va omonim so'zlarni tillarning leksik sistemasida tutgan o'rnini o'rganish maqsadga muvofiqdir. Masalan: katta, ulkan, bahaybat so'zlari sinonimik qatorni tashkil etadi. Bu so'zlarning ma'noviy yaqinligini substitutsiya uslubi yordamida tekshiramiz:

qari odam

keksa odam

eski odam

Keltirilgan so'z birikmalarida aniqlovchi vazifasini o'tayotgan sinonimlarni almashtirib ko'ramiz: 1-va 2-birikma til normasiga mos keladi, uchinchi esa g'ayri tabiiy so'z birikmasidir. Yana bir misol:

qari kiyim

keksa kiyim

eski kiyim

Bu o'rinda 1-va 2-birikmalar o'zbek tili uchun odatiy emas, uchinchi esa odatiy. Shunday qilib, bu sinonimlar mutlaq sinonim emas. Chunki ular doim biri ikkinchisini almashtirib kela olmaydi. Bu uslub hamma talablarga javob bera olishi tufayli tilshunoslik fanida mustahkam o'rin egallagan. Bu uslub tilning hamma qatlamlariga birday xizmat qila oladi⁴.

Biz yuqorida o'zbek tilida gap bo'laklarining tahlili qisman ko'rib chiqdik va bizda boshlang'ich bilim mavjud. Endilikda, ushbu gap bo'laklarini ingliz tili bilan solishtirsak, aynan ingliz tilini o'rganish jarayonida qisman yengillik tug'diradi. Bilamizki ingliz tili til oilalari doirasida roman-german tillar oilasiga mansub va uning sintaktik gap tushilishi o'zbek tilinikidan anchayin farq qiladi. Bizning ona tilimizda gapning asosiy ma'no ifodasini fe'l tashkil qilsa, aksincha, ingliz tilida ega va kesim (subject and verb) tashkil qiladi. O'zbek tilida faqatgina kesim yordamida ham gap tuzish mumkin bo'lsa, ingliz tilida esa ega va kesimsiz gap hosil qilib bo'lmaydi. O'zbek va ingliz tilida gap bo'laklarini misol orqali tahlil qilib cgiqamiz:

Biz bilan kinoga borasanmi?

Do you go to cinema with us?

Ha, boraman.

Yes, I do.

Yuqorida keltirilgan misolga qarasak o'zbek tilida egasiz ham ma'no anglata oladigan gap hosil qilish imkoni mavjud, ammo ingliz tilida bunday emas gapda, albatta, ega ishtirok etishi zarur. O'zbek tilidagi misolda kesim tarkinidagi shaxs son qo'shimchasi orqali eganing yashirin holda mavjudligini ko'rishimiz mumkin ammo bu hol ingliz tilida kuzatilmaydi va shu boisdan ham ingliz tilida egani qisqartirib bo'lmaydi. Ikki til grammatikasidagi farq nafaqat ega kesimda balki, ularning joylashuvida ham ko'rish mumkin. O'zbek tilida gap bo'laklari *aniqlovchi-ega-to'ldiruvchi-hol-kesim* tartibida joylashsa (o'zgarishi mumkin) ingliz tilida avval

⁴ M.T. Irisqulov. „Tilshunoslikka kirish“. Toshkent „Yoshlar matbuoti“2009. 204-bet.



aniqlovchi-ega-kesim-to'ldiruvchi-hol tartibida joylashadi(o'zgarishi mumkin). Ushbu tillar grammatikasidagi farqlarni ularning turli til oilalariga mansubligi bilan izohlash mumkin, chunki oltoy tillar oilasiga mansub tillar grammatikasi o'zbek tili grammatikasiga o'xshash va bu tillar roman-german tillar oilasi grammatikasidan yuqorida ko'rib chiqqan bazi farqlar bilan ajralib turadi.

Dunyodagi tillar grammatikasi tillar oilasi kesimida turli xil izohlansada bir biriga qisman o'xshash hisoblanadi, va agar siz o'z ona tilingiz grammatikasini chuqur o'rgangan va unda bexato ish olib boruvchilar safida bo'lsangiz, boshqa xorijiy tillarni o'rganish sizga aslo qiyinchilik tug'dirmaydi. O'z tilingiz va xorijiy tillarni ham mukammal tarzda o'rganish sizning ikki til bo'yicha ham yetuk mutaxassis bo'lib yetishishingizda muhim omil hisoblanadi. Buning uchun mutaxassis o'qituvchilarning talab va tasviyalariga muvofiq ish ko'rish lozim. Zero, ustoz ko'rmagan shogird har maqomga yo'rg'alar iborasi bejiz aytilgan emas. Hech bir ilm osonlik bilan egallanmaydi, uning ortida katta mashaqqat va mehnat yotadi. Bunda bizga yordam qo'lini cho'zuvchi kishilar aynan ustozlar hisoblanishadi.

Har qanday holatda ham inson o'rganishdan, izlanishdan to'xtamasligi lozim. Bu uning hayotida katta muvaffaqiyatlarga eltadi va uning komil inson bo'lib yetishishiga ko'mak beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. M.T. Irisqulov. „Tilshunoslikka kirish“. Toshkent „Yoshlar matbuoti“ 2009.
2. M.T. Irisqulov. „Tilshunoslikka kirish“. Toshkent „Yoshlar matbuoti“2009.
3. Orzigul Hamroyeva. “Ona tili. Maruzalar to'plami”. Toshkent „Akademnashr“2016.
4. <https://hozir.org/ozbekiston-respublikasi-oliy-va-orta-maxsus-v10.html?>